

# «QUBLA ARAL BO'YI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELARI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILMIY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

## OROL BO'YI ARXEOLOGIYASI

**Xo'jageldiev Ibodulla Mamarajab o'g'li**  
*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti*

“Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali – hanuz o'zining ko'rku-tarovatini saqlab kelayotgan osoru atiqalarimiz qadim – qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi” [1]. Xususan, mamlakatimizning Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan qadimiy shaharlarida bunyod etilgan me'moriy majmualar ajdodlarimiz dunyoqarashi va tafakkurini aks ettiruvchi manba, o'tmish va hozirgi kun o'rtasidagi madaniy ko'priklar vazifasini o'taydi.

Mazkur madaniy merosni o'rganish barcha davrlarda ham qiziqarli mavzular sirasiga kiritilgan. Bugungi kunda esa milliy me'morchilik tarixini tadqiq etish va bizgacha yetib kelgan me'moriy majmualarni tiklash masalasi davlat tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda. Xususan, hukumatimiz tomonidan mazkur tarixiy – madaniy va me'moriy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish tartibining huquqiy-me'riy asoslari ishlab chiqilgan.[2]

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng moddiy va nomoddiy madaniy merosimizni xolis o'rganish va targ'ib etishga e'tibor kuchaydi. Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, yoki qayta tiklandi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 7000 ortiq yodgorlik, jumladan 2500 ta memoriy obida 2700 dan ortiq monomental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Madaniy yodgorliklarimizning o'zboshimchalik bilan buzilib ketishining oldini olish uchun, madaniy yodgorliklarni saqlash to'g'irisida bir qancha qarorlar qabul qilindi.

Hukumatimiz tomonidan madaniy merosimizga e'tibor berilayotgan bir vaqtda, joylardagi mahalliy davlat boshqaruvi organlarining buyrug'i bilan qanchadan-qancha mahalliy ahamiyatga molik arxitektura yodgorliklari buzilib ketmoqda. Yodgorliklarni o'zboshimchalik bilan sotuvga qo'yish, ko'p yillarga ijaraga berish holatlari uchrab turibdi. Vaholanki, arxitektura durdonalarini sotish u yerda tursin, uzoq vaqtga ijaraga berish ham noqonuniy hisoblanadi. Sovet mustamlakachiligi davrida madaniy yodgorliklarimiz o'z vazifalarini bajarmagan, Sovet mafkurasiga moslashtirildi. Madaniy yodgorliklarimizdan muzey, kino teatrlar, omborxonalar, molxonalar sifatida foydalanilgan[3].

Qoroqalpog'istonda 1000 ga yaqin tarixiy obidalar topilgan. Afsuski qishloq xo'jaligini rivojlantirish maxsadida 700 ga yaqin obidalar yo'q bo'lib ketgan. Sergey

# «QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI» ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI

Tolstov bu zamini «ikki daryo oralig'idagi ikkinchi Misr» deb baho bergan. Mashhur san'atshunos olim Egor Savetskey izlanishlar natijasida 1981 -1982 yillarda Ellikqal'a tumanida Qavatqal'a deb nom berilgan o'rta asrga oid qasr topgan edi. Egor Savetskey bu joyni belgilab 3-4 oydan so'ng qazish ishlarini boshlash uchun qaytib kelganda bu yerda hozirgi hokimlik binosi qurulish ishlari boshlanib ketganini ko'rib, daxshatdan yig'lab yuborgan.

«Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarib qo'yish» holatlari ham uchrab turibdi. Qizil qal'a yodgorligi ham 1938 yil xorazim arxeologlari tomonidan ochilgan. 1000 yillik tarixga ega yodgorlik ustalar tomonidan zamonaviy ko'rinishga keltirib qo'yilgan. Endi esa yodgorlik o'rnida zamonaviy imorat qad roslagan. Bu kabi yodgorliklarga yetarlicha e'tibor berilmaganligi sababli yo'q bo'lib ketmoqda. Mutaxassislar fikricha, ayni paytda 2500 ga yaqin arxitektura yodgorliklarining ahvolini qoniqarli deb bo'lmaydi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, o'tgan yillar mobaynida yer o'zlashtirish, paxta yetishtirish maqsadida respublikadagi arxeologik yodgorliklarning bir qismi nobud qilingan. Tarixning bu noyob yodgorliklarining yana bir qismi esa, yo'l yotqizish, suv va gaz quvurlari o'tkazish, zavod va fabrikalar, bog'lar barpo etishda yo'q qilingan.

Tosh hovli saroyi Ollaqulixonning amiri bilan vaziri Muxammad Yoqub mextar loyxasi asosida xonning qasri sifatida qurilgan. 2020 yil 8 dekabr kuni «Sergut neft stroy» pudratchi xususiy korxonasi tomonidan devorning tepa qismi buzib tashlangan. Bu ishlar darhol to'xtatilib tegishli chora tadbirlar qo'llanilgan. Bu buzg'unchilik ishlarini chetdan kelib qilinayotgani yo'q buni o'z fuqarolarimiz o'z shaxsiy ehtiyojlarini o'ylab qilayotganligi ko'ngilni xira qiladi. Germaniya, Firansya, Italiya va boshqa davlatlar bu kabi yodgorliklardan unimli foydalanib turizm sohasini rivojlantirib turgan bir vaqtda, o'zbek xalqining bu kabi ishlari «varvarlik»dan hech ham farq qilmaydi. Bugungi kun avlodlari bu kabi yodgorliklarni kelajak avlod uchun asrab avaylashga majburdirlar.

Xulosa qilib aytganda, Sovetlar tuzumi davrida madaniy yodgorliklarimizga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng milliy qadriyatlar va madaniy merosimizga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimiz hududida saqlanib qolgan tarixiy madaniy yodgorliklarni saqlab, ulardan tashqi va ichki turizmni rivijlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buxoro, Xiva, Samarqand, Nukus kabi qadimiy shaharlarimizning yubileylari jahonda va yurtimizda keng nishonlanib kelinmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

**«QUBLA ARAL BOYI ARXEOLOGIIYASI,  
ETNOGRAFIYASI, DEREKTANIWI, TARIYXNAMASI  
HÁM TARIYXINIŃ AKTUAL MÁSELELERI»  
ATAMASINDA XALIQ ARALIQ ILIMY-TEORIYALIQ KONFERENCIYA MATERIYALLARI**

2. Ўзбекистон Республикасининг “Маданият мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонуни, 2001 й. 30 август.
3. О‘зМА, 2296-fond, 7-ro‘ухат, 58v-ish